

OILA VA TARBIYANING YOSH AVLOD HAYOTIDAGI O'RNI**Sarvinoz Sharipova****SamDCHTI Ingliz tili o'qituvchisi****Rahmatullayeva Hulkar Shavkat qizi****SamDCHTI 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18051134>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila va tarbiyaning yosh avlod shaxs sifatida shakllanishidagi muhim o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Oilaning bolaning ijtimoiylashuvi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi, psixologik barqarorligi va intellektual rivojlanishiga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, oilaviy muhitda beriladigan tarbiyaning jamiyat taraqqiyoti uchun mas'ul, mustaqil fikrlovchi va vatanparvar shaxsni kamol toptirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy ijtimoiy muammolar, globalizatsiya jarayonlari hamda axborot texnologiyalarining oilaviy tarbiyaga ko'rsatayotgan ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, yosh avlod, shaxs kamoloti, ijtimoiylashuv, axloqiy qadriyatlar, oilaviy muhit, ta'lim va tarbiya.

Oila – bu jamiyatning eng kichik va ajralmas bo'lagi, shu bilan birga, insonning boshlang'ich tarbiya maskani hamdir. Har bir bola, avvalo, oilada atrof-muhitni, insonlarni idrok etadi, axloqiy qadriyatlarni o'rganadi va xulq-atvorni shakllantiradi. Shu boisdan, oila va tarbiya nafaqat pedagogika balki jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri. Mustahkam oilada voyaga yetgan yoshlar irodali, mas'uliyatli va maqsadli bo'ladi. Mazkur maqola orqali oila va tarbiyaning yoshlar hayotidagi o'rni, ularning shakllanishiga ta'siri, muammo va yechimlar yoritiladi.

Inson dunyoga kelgan paytdan boshlab, avvalambor, ota-onaning mehr-muhabbatiga, g'amxo'rlikiga tayanadi. Bola sòzlashishni, yurishni, dunyoni idrok etishni, yaxshi-yomonni ajratishni oiladan o'rganadi. Demak, oila tarbiyaning asosiy manbai. Har bir ota-ona oilada axloqiy qadriyatlarni singdirish, mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizom, odob-axloq kabi tarbiyaviy masalalarni bajaradi.

Shuning uchun ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyada eng kuchli vosita sanaladi. Misol uchun, Sharq mutaffakkiri Ibn Sinoning "Tadbiri manzil" nomli risolasida bolaga tarbiya berishning aynan oiladan boshlanishi, ota-onaning esa asosiy tarbiyachi ekanligini ta'kidlaydi. U bolaga yoshligidan odob-axloq, mehnatsevarlik va halollikni singdirish zarurligini yozgan.

Yosh avlodning kelajak hayotdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga bog'liq. To'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya bolada maqsadga intilishni, o'ziga ishonchni, mustaqil fikrlashni, halollikni rivojlantiradi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarida Otabek obrazining shakllanishida oila tarbiyasining ta'siri aniq ko'rinadi. Uning halolligi odobi va mulohazakorligi- oilasi berayotgan tarbiyaning natijasidir. Aksincha, bo'lgan oilalardan farzandlarida o'zini tutish, intizom va mas'uliyat bilan bog'liq muammolar kuzatilishi mumkin. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida esa noto'g'ri tarbiya oqibatlari ko'rsatib beriladi.

Bugungi globallashuv sharoitida oila tarbiyasiga bir qancha salbiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Ota-onalarning bandligi-ish, koryera bilan band bolib, bolalarga vaqt kam ajratishi.
2. Telefon va internetga haddan tashqari berilib ketish - buning natijasida bolalar til, odob, madaniyatdan uzoqlashishi.
3. Tarbiyada izchillikning yetishmasligi - ota va onaning talablari bir xil bo'masligi.

O'zbek pedagogikasida taniqli olim M. Ochilova "Pedagogika" darsligida ota-onaning bandligi, oiladagi e'tibor yetishmasligi bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishini ilmiy asoslab beradi.

Yaxshi tarbiya ota-onalarning bolaga mehr bilan, lekin nazorat bilan munosabatda bo'lishi, bolani yoshligidan mehnatga, odob va hurmatga o'rgatish, oilada iliq muhit yaratish, nizolarni boladan yashirmasdan, ammo to'g'ri tarzda hal qilish, bolaning qobiliyatini ko'rib, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, internetdan foydalanishni nazorat qilish, uning o'rniga kitob o'qish, sport, ijod bilan shug'ullanishga yo'naltirish orqali mustahkamlanadi. To'g'ri tarbiya berilgan oila- mustahkam jamiyatning poydevoridir.

Oila va tarbiya yosh avlodning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardandir. Ota-onaning mehribonligi, to'g'ri ko'rsatmalari, shaxsiy namunasi farzandning xulqi, dunyoqarashi va kelajakka bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bugungi kunda tarbiyaga ta'sir qiluvchi turli tashqi omillar mavjud bo'lsa-da, mustahkam oila muhitini yaratish, bolaga e'tibor, mehr va tarbiyaviy yo'l-yo'riq berish - kelajakda barkamol, bilimli va mas'uliyatli avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Demak, oiladagi tarbiya jamiyatning ertangi taraqqiyotini belgilovchi asosiy omildir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902.
2. A. Qodiriy. "O'tkan kunlar" - Toshkent. 2019. – 396 b.
3. A. Qahhor. "O'g'ri" - Toshkent. 2019.
4. M. Ochilova "Pedagogika" - Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 264 b.
5. A. Fitrat "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" 2-nashr, –Toshkent: "Ma'naviyat". 2000. – B. 112, 55.
6. A. Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq". – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. – B. 97.